Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatini tartibga solishning xalqaro standarti hisoblangan Bazel III tizimining banklar samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligiga ta'siri O'zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda bank tizimining kapitallashuv darajasi, likvidlilik koeffitsiyentlari (LCR, NSFR) va risklarni boshqarish mexanizmlari qiyosiy jihatdan o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan joriy etilgan prudensial talablar, xususan, kapital yetarliligi koeffitsiyentining (CAR) xalqaro minimal standartlardan yuqori darajada belgilanishi bank tizimining tashqi iqtisodiy ta'sirlarga nisbatan barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgani asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada bank aktivlarining o'sish dinamikasi, kredit portfeli sifati hamda Bazel III standartlarining banklar rentabelligiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, Bazel III, kapital yetarliligi, likvidlilik, moliyaviy barqarorlik, bank nazorati, O'zbekiston, risklarni boshqarish.

Abstract. This article analyzes the impact of the Basel III framework, recognized as an international standard for regulating commercial banking activities, on bank efficiency and financial stability using Uzbekistan as a case study. The research comparatively examines the capitalization level of the banking system, liquidity ratios (LCR, NSFR), and risk management mechanisms. It is substantiated that the prudential requirements introduced by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, particularly the establishment of the Capital Adequacy Ratio (CAR) above international minimum standards, have contributed to strengthening the resilience of the banking system against external economic shocks. Furthermore, the article highlights the dynamics of bank asset growth, the quality of credit portfolios, and the impact of Basel III standards on bank profitability based on statistical data.

Key words: commercial banks, Basel III, capital adequacy, liquidity, financial stability, banking supervision, Uzbekistan, risk management.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние системы Базель III, являющейся международным стандартом регулирования деятельности коммерческих банков, на эффективность и финансовую устойчивость банков на примере Узбекистана. В исследовании проведен сравнительный анализ уровня капитализации банковской системы, коэффициентов ликвидности (LCR, NSFR) и механизмов управления рисками. Обосновано, что пруденциальные требования, установленные Центральным банком Республики Узбекистан, в частности определение коэффициента достаточности капитала (CAR) на уровне выше международных минимальных стандартов, способствовали укреплению устойчивости банковской системы к внешним экономическим воздействиям. Также в статье на основе статистических данных освещаются динамика роста банковских активов, качество кредитного портфеля и влияние стандартов Базель III на рентабельность банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, Базель III, достаточность капитала, ликвидность, финансовая устойчивость, банковский надзор, Узбекистан, управление рисками.

KIRISH

Jahon moliya tizimining globallashuvi hamda iqtisodiy inqirozlarning transcargaraviy ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi davrda bank tizimi barqarorligini ta'minlash har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2008-yildagi global moliyaviy inqiroz an'anaviy bank nazorati mexanizmlarining ayrim jihatlari qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirdi. Natijada Bazel qo'mitasi tomonidan bank tizimi barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan yanada takomillashtirilgan qoidalar majmuasi — Bazel III standarti ishlab chiqildi. Mazkur standart nafaqat kapital yetarliligiga, balki banklarning likvidlilik darajasi hamda leveraj



(qarz yuklamasi) ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor qaratadi. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida bank sektorini isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayoni izchil davom etmoqda [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, xususiy va xorijiy kapital ishtirokini kengaytirish hamda bank xizmatlari sifatini oshirishdan iborat. Bazel III talablarini joriy etish mazkur transformatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mahalliy banklarning xalqaro moliya bozorlaridagi raqobatbardoshligini va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi [2].

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, Bazel III standartlari banklar faoliyatida qo'shimcha tartibga solish mexanizmlarini talab etsa-da, uzoq muddatli istiqbolda tizimli risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Banklarning o'z kapitali sifatini oshirish hamda likvidlilik zaxiralarini shakllantirish ularning kutilmagan iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchanligini kuchaytiradi. O'zbekiston sharoitida bank aktivlarining keyingi yetti yil davomida 5,3 baravardan ortib, 877 trillion so'mdan oshgani nazorat va risklarni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda [3].

Bank tizimi barqarorligi iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tijorat banklari tomonidan real sektorga yo'naltirilayotgan kreditlar hajmining ortishi bilan bir qatorda risklar ko'lami ham kengayib boradi. Shu bois Bazel III doirasidagi kontrtsiklik kapital buferlari hamda kapitalni saqlash buferlari kabi zamonaviy prudensial mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizmlar iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan davrlarda qo'shimcha zaxiralarni shakllantirish, iqtisodiy pasayish davrlarida esa ushbu zaxiralardan samarali foydalanish imkonini beradi [4].

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarida Bazel III standartlarining joriy etilish holatini o'rganish, uning banklar samaradorligi va moliyaviy barqarorligiga ta'sirini baholash hamda istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilab berishdan iborat. Tadqiqot davomida mamlakat bank tizimidagi asosiy moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilinadi va xalqaro tajriba bilan qiyosiy baholanadi. Bu esa bank nazorati tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimini tartibga solish va Bazel standartlari bo'yicha ko'plab xalqaro hamda mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Bazel qo'mitasining (BCBS) asosiy hujjatlari mazkur tizimning nazariy va uslubiy asoslarini shakllantirgan. G'arb iqtisodchilari F. Mishkin va L. Saunders bank risklarini boshqarishda kapital yetarliligining ahamiyatini o'z ilmiy ishlarida batafsil yoritib berganlar. Ularning fikricha, bank kapitali nafaqat operatsion xarajatlarni qoplash, balki kutilmagan moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiluvchi "xavfsizlik yostig'i" vazifasini ham bajaradi [5]. Shuningdek, J. Cole va T. Kosak kabi olimlar Bazel III standartlarining banklar samaradorligi (ROE va ROA) bilan o'zaro bog'liqligini empirik jihatdan tahlil qilib, qat'iy prudensial talablar qisqa muddatda rentabellik ko'rsatkichlariga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkinligini, biroq uzoq muddatli istiqbolda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh. Abdullaeva, A. Omonov, J. Ataniyazov va boshqa tadqiqotchilar mamlakat bank tizimini Bazel standartlari asosida transformatsiya qilish masalalarini keng o'rganganlar. Jumladan, Sh. Abdullaeva o'z ilmiy ishlarida tijorat banklari kapitalining sifat tarkibini takomillashtirish hamda I-darajali kapital ulushini oshirish zarurligini asoslab bergan [6]. Mahalliy tadqiqotchilarning aksariyati O'zbekiston sharoitida Bazel III talablarini joriy etishda davlat ishtirokidagi banklarning institutsional xususiyatlarini hisobga olish muhim ekanligini qayd etadilar.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Bazel III standartlarining banklar samaradorligiga ta'siri bo'yicha yagona ilmiy yondashuv shakllanmagan. Ayrim tadqiqotlarda ushbu standartlarning bank barqarorligini oshirishdagi ijobiy jihatlari alohida e'tirof etilgan bo'lsa, boshqa izlanishlarda prudensial talablarning kreditlash hajmi va rentabellik ko'rsatkichlariga ta'siri muhokama qilingan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston bank tizimining so'nggi yillardagi statistik ma'lumotlari asosida qo'shimcha ilmiy tahlillar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, induksiya va deduksiya hamda guruhlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari, moliyaviy barqarorlik bo'yicha hisobotlari, tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari hamda xalqaro moliya institutlari — Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon bankining (World Bank) tahliliy



materiallari tashkil etdi. Tahlillar 2018–2024-yillar oralig'idagi dinamik qatorlarni qamrab olib, asosiy e'tibor kapital yetariligi (CAR), I-darajali kapital koeffitsiyenti hamda likvidlilik koeffitsiyentlariga (LCR) qaratildi [7].

Banklar samaradorligini baholashda kapital rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichlarining Bazel III talablari bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Shuningdek, riskka tortilgan aktivlarni (RWA) hisoblashda Markaziy bankning yangilangan metodologiyasi, xususan, kichik biznes kreditlari uchun risk vaznlaridagi o'zgarishlar inobatga olindi. Tadqiqot davomida banklar mulkchilik shakliga ko'ra, ya'ni davlat ulushi mavjud banklar va xususiy banklar guruhlariga ajratilib tahlil qilindi. Bu esa Bazel III standartlariga moslashish darajasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi [8].

Bundan tashqari, Bazel III doirasidagi "Liquidity Coverage Ratio" (LCR) va "Net Stable Funding Ratio" (NSFR) ko'rsatkichlarining banklar likvidligini boshqarish tizimiga ta'siri matematik modellashtirish elementlari asosida o'rganildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va O'zbekiston bank tizimi uchun amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiladi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida bank tizimining moliyaviy barqarorlik indikatorlari prognoz qilinib, samaradorlikni oshirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimida Bazel III standartlarini joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakunlari holatida bank tizimining kapital yetariligi koeffitsiyenti (CAR) o'rtacha 17–18 foizni tashkil etgan bo'lib, bu Bazel III standartida belgilangan minimal 10,5 foizlik talabdan (kapital buferlarini hisobga olgan holda) sezilarli darajada yuqoridir. Mazkur holat banklarning yuqori darajada kapitallashganligini hamda ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarni qoplash imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda kapital ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish zarurligini ham anglatishi mumkin [9].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida prudensial nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kapital yetariligi, likvidlilik va risklarni boshqarish bo'yicha joriy etilgan talablar xalqaro standartlarga muvofiq ravishda takomillashtirilmoqda. Bu esa mahalliy banklarning tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish bilan bir qatorda, investorlar va xalqaro moliya institutlari ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Quyidagi jadvalda Bazel III xalqaro talablari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan prudensial me'yorlar qiyosiy tarzda keltirilgan. Jadval ma'lumotlari milliy regulyator tomonidan bank tizimi barqarorligini ta'minlash maqsadida ayrim yo'nalishlarda xalqaro standartlarga nisbatan ehtiyotkorroq va mustahkamroq talablar qo'llanilayotganligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Bazel III va O'zbekiston Markaziy banki kapital talablari qiyosiy tahlili¹

Ko'rsatkich nomi	Bazel III minimal talabi (%)	MB amaldagi talabi (%)	O'zbekiston banklari o'rtacha ko'rsatkichi (2024-y)
Umumiy kapital yetariligi (CAR)	8.0 + 2.5 (bufer)	13.0	17.2
I-darajali kapital yetariligi	6.0 + 2.5 (bufer)	10.0	14.1
Asosiy I-darajali kapital (CET1)	4.5 + 2.5 (bufer)	8.0	12.8
Likvidlikni qoplash me'yori (LCR)	100.0	100.0	185.0


Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan Bazel III talablarini bajarish jarayoni barqaror davom etmoqda. Xususan, LCR ko'rsatkichining 185 foiz darajasida shakllanishi bank tizimida yuqori likvidli aktivlar zaxirasi yetarli ekanligini va qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlarni bajarish imkoniyatlari yuqori ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, tahlillar bank aktivlari hajmining o'sish sur'atlari kapital o'sish sur'atlariga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko'rsatmoqda. So'nggi yetti yil davomida bank aktivlari 5,3 baravardan ortiq oshgan bo'lsa, regulyativ kapital hajmi ham izchil ravishda ko'payib borgan [10].

Banklar samaradorligi ko'rsatkichlari, xususan kapital rentabelligi (ROE) tahlili natijalari 2020–2024-yillar davomida ayrim o'zgarishlar kuzatilganligini ko'rsatadi. Bazel III standartlari doirasidagi prudensial talablarning kuchayishi banklarni nisbatan barqaror va xavfsiz aktivlarga investitsiya yo'naltirishga rag'batlantirmoqda. Bu esa ayrim hollarda yuqori risk darajasiga ega bo'lgan, biroq yuqori daromadlilikni ta'minlovchi loyihalarni moliyalashtirish hajmiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, banklar aktivlari rentabelligi (ROA) o'rtacha 2,5–3,0 foiz oralig'ida barqaror shakllangan.

1 Muallif ishlanmasi



Umuman olganda, Bazel III standartlarining joriy etilishi O'zbekiston bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni samarali boshqarish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Quyidagi rasmda bank tizimida kapital yetarliligi ko'rsatkichlarining yillar kesimidagi dinamikasi aks ettirilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston bank tizimida kapital yetarliligi koeffitsiyenti dinamikasi (2018-2024 yy.)²

Ushbu rasm bank tizimining barqaror rivojlanish trayektoriyasida ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, banklar o'rtasida kapital taqsimotining notekisligi saqlanib qolmoqda. Davlat ishtirokidagi yirik banklar — O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Agrobank va Sanoatqurilishbank kapitalizatsiya darajasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Bunga ushbu banklarning kapital bazasi muntazam ravishda mustahkamlanib borayotgani sabab bo'lmoqda. Xususiylashtirilgan banklarda esa samaradorlik ko'rsatkichlari, xususan kapital rentabelligi (ROE) nisbatan yuqoriroq shakllanayotgan bo'lsa-da, ularning bozor ulushi hanauz cheklanganligicha qolmoqda [11].

Bazel III doirasidagi yangi o'zgarishlar, jumladan, 2025-yildan boshlab kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar uchun risk vaznining 75 foizga tushirilishi banklar faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda. Mazkur yondashuv banklarga kapital resurslaridan samaraliroq foydalanish orqali kreditlash hajmini kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, I-darajali qo'shimcha kapital (AT1) tarkibiga doimiy va kumulyativ bo'lmagan moliyaviy instrumentlarning kiritilishi banklar uchun bozor mexanizmlari asosida kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa banklarning davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashiga bo'lgan ehtiyojini kamaytirish hamda ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bazel III standartlarini joriy etish O'zbekiston bank tizimi uchun nafaqat prudensial tartibga solish vositasi, balki barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston tajribasi bank nazoratini kuchaytirish iqtisodiy islohotlar davrida moliyaviy tizimning barqarorligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda muhokama qilinishi lozim bo'lgan bir qator masalalar ham mavjud.

Birinchidan, kapital yetarliligi bo'yicha yuqori talablar banklarning kreditlash imkoniyatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqori CAR ko'rsatkichini saqlab turish banklardan qo'shimcha kapital zaxiralarini shakllantirishni talab qiladi, bu esa ayrim hollarda kredit resurslari qiymatining oshishiga olib kelishi mumkin [12].

Ikkinchidan, Bazel III standartlariga to'liq moslashish jarayonida banklar uchun hisobdorlik va monitoring talablari kengaymoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashicha, O'zbekiston 2026-yilga qadar Bazel qo'mitasining 29 ta asosiy tamoyiliga to'liq moslashishni maqsad qilgan. Bu esa banklardan nafaqat kapital va likvidlilik kabi miqdoriy ko'rsatkichlarni, balki korporativ boshqaruv, ichki nazorat hamda risk-menejment tizimlarini ham xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirishni talab etadi [13].

Uchinchidan, davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlari Bazel III talablarini bajarishda yangi institutsional vazifalarni yuzaga keltirishi mumkin. Davlat kafolati asosidagi kreditlar ulushining qisqarishi va bozor mexanizmlarining kuchayishi banklarning risk profilini o'zgartiradi. Shu

² Muallif ishlanmasi



sababli, banklar samaradorligini oshirishda faqat kapital yetariligidga e'tibor qaratish bilan cheklanib qolmasdan, operatsion xarajatlarni optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda daromad manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi [14].

Bundan tashqari, likvidlikni boshqarishda NSFR ko'rsatkichining ahamiyati ortib borayotgani banklarni uzoq muddatli va barqaror resurs bazasini, ayniqsa depozit portfelini kengaytirishga undamoqda. Mazkur yondashuv bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy ta'sirlarga moslashuvchanligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqotlar hamda statistik tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Bazel III standartlari O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat bank tizimi hozirgi kunda yetarli darajadagi kapital va likvidlik zaxirasiga ega bo'lib, bu holat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan prudensial nazorat siyosatining samarali natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bank tizimi samaradorligini yanada oshirish va xalqaro standartlarga moslashuv darajasini kuchaytirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Banklar kapitalining sifat tarkibini yaxshilash maqsadida Bazel III talablariga mos keluvchi gibril kapital instrumentlari — AT1 va Tier 2 vositalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish lozim. Bu banklarga davlat mablag'lariga tayanishdan ko'ra, moliya bozorlari orqali qo'shimcha kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi [15; 18-b.].

2. Risk-menejment tizimini yanada takomillashtirish orqali riskka tortilgan aktivlarni (RWA) hisoblash metodologiyasini Bazel III standart yondashuviga bosqichma-bosqich to'liq moslashtirish zarur. Mazkur yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlashda banklar zimmasidagi kapital yuklamasini optimallashtirishga xizmat qiladi.

3. Banklarda operatsion samaradorlikni oshirish maqsadida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bazel III talablarining samarali bajarilishi zamonaviy IT-infratuzilma, ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari va avtomatlashtirilgan risk monitoring mexanizmlarini keng joriy etishni talab etadi.

4. Davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish orqali bank tizimidagi raqobat muhitini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Raqobat muhiti banklarni resurslardan samarali foydalanishga, xizmatlar sifatini oshirishga hamda moliyaviy xizmatlar tannaxini optimallashtirishga rag'batlantiradi.

Umuman olganda, Bazel III standartlari bank tizimining xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur standartlarga rioya etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan bir qatorda, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi mavqeini yaxshilash va xorijiy investitsiyalar oqimini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: darslik. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2017. – 632 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil uchun yillik hisoboti. – Toshkent, 2024.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: A Global Regulatory Framework for More Resilient Banks and Banking Systems. – Basel: BIS, 2011.
5. Mishkin F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. – 13th Edition. – Pearson Education, 2019.
6. Karimov A.A. Bank tizimini isloh qilish va barqarorligini ta'minlash. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi – 2022. – Toshkent, 2023.
8. Ataniyazov J.X. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. – Toshkent: "Moliya", 2020.
9. International Monetary Fund (IMF). Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program – Detailed Assessment of Observance. – Washington, D.C., 2024.
10. Saunders A., Cornett M.M. Financial Institutions Management: A Risk Management Approach. – 10th Edition. – New York: McGraw-Hill Education, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Tijorat banklari kapitalining yetariligidga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.
12. World Bank. Uzbekistan Banking Sector Reform Project Documents. – Washington, D.C., 2023.
13. Nosirov S. Bazel III va uning O'zbekiston bank tizimiga ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2024. – №2.
14. Central Bank of Uzbekistan. Statistical Bulletin – December 2023. – Tashkent, 2023.
15. Haydarov O.K. Bazel III talablari va ularning O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga ta'siri // Modern American Journal. – 2025. – Vol. 1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>